

IQRORNOMA ASARINING TAHLILI VA UNING DIN VA ILMGA BO‘LGAN AHAMIYATI

Jumabekova Zilola Saitmurod qizi

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Islomshunoslik” ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola buyuk rus Lev Nikolayevich Tolstoyning islomga bo‘lgan hurmati va ilmga e’tibori bu maqolada aks etgan. Adibning bu kitobi nafaqat islom dinining eng haq din ekanigiga dalolat qilgan balki barcha dinlar bilan bo‘lgan qiyosda ham dinimizga bo‘lgan hurmatini bayon etgan. Shuningdek, Lev Tolstoyning hayotida ro‘y bergan diniy suhbatlar va ilm borasidagi qarashlari yoritilgan bo‘lib, bu maqola hozirgi kunda ilm olib yurgan talaba yoshlarga, yozuvchining ilmga hurmati alohida e’tirof etilgan.

Kalit so‘zlar: Iqrornoma, daho, faylasuf, injil, dvoryan, sulola, islom, payg‘ambar, Sovet, Sho‘ro

Lev Nikolayevich Tolstoy rus adabiyotining ko‘zga ko‘ringan yozuvchisi, dahosi, faylasufi hisoblanadi. Uning yozgan boshqa asarlaridan farqli o‘laroq Iqrornoma asari ko‘p ilmiy muhokamalarga sabab bo‘lgan. Negaki, bu asar avtobiografik shaklda bo‘lib, asarlari ichida xazina hisoblanib, yozuvchi ushbu asar orqali ichki kechinmalarini sarhisob qilib, oz davrida qilgan ishlari bayon etilgan. Uning hayoti, va ijod yo‘lida tutgan o‘rni va mavqeyi juda baland hisoblanadi. Bu asar orqali kelajakdagi yoshlarga hayotning mazmuni haqida yangicha tushunchalar berib o‘tgan.

Lev Nikolayevich Tolstoy 1828-yil 9-sentabrda “Yasnaya Polnaya” qishlog‘ida tavallud topgan, u qadimiy dvoryanlar sulolasidan bo‘lib, Peturburg fanlar akademiyasi muhburi a’zosi, u Qozon universitetining arab-turk va huquqshunoslik fakultetida tahsil olgan. Adib bolalik kechlarida arab-rus ertaklarini o‘qib, Pushkinning she’rlari va Injildagi Yusuf qissasidan ilhomlanib ilk she’rlarini yozadi. Yozuvchi o‘pirin davrida ko‘p tarixiy voqealarga guvoh bo‘ladi. Masalan: adib Qrim va Kavkazda yuz bergan urushlarda faol qatnashadi. Uning birinchi yirik asari- “Inson Kamolotining to‘rt davri” hisoblanib, urush vaqtida askarlarning maiyshiy hayot tarzi yoritilgan¹. Uning asarlari nafaqat rus adabiyotining balki jahon adabiyotining mashxur kutubxonalaridan joy olgan, adibning asarlari kitobxonlarning sevimli kitobiga aylanishga ulgurgan edi. Sovet davridayoq uning shoh asarlari chop etila boshlagan edi, shu bilan o‘zbek yozuvchilaridan bir qanchasi uning asarlarini tarjima qilishni boshlab uni aholiga

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Lev_Tolstoy

tadbiq qildi, va o'zbek xalqini L.Tolstoyning asarlarini asl mohiyatini ochib berdi. Masalan: Abdulla Qahhor "Urush va Tinchlik" asarining birinchi tomi bosmadan chiqdi, ikkinchinchisini esa Kibriyoxonim Qahhorova bilan hamkorlikda tarjima qildi. Tolstoyning hamma asarlari o'zbek yozuvchilari uchun mahoratli maktab vazifasini bajargan edi. Abdulla Qahhor aytadiki: chindan biz o'zbek yozuvchilari Tolstoy oldida minnatdormiz. Tarjimonlardan: Sadridin Ayniy, va Abdulla Qodiriy, Sharof Rashidov kabi iste'dodli yozuvchilar rus dahosining asarlarini o'zbek kitobxonlariga taqdim etgan. Tolstoyning hayotida katta burilish yasaldi va Iqornoma asarini yozdi. Asarning chop etilish tarixi juda qiyin kechdi. Asarni yozishda Tolstoy ellik yoshlar atrofida edi, So'ngi din deb tan olingan islom payg'ambari oxirzamon Muhammad (s.a.v) hayotini o'rganish bilan cheklanmay, Abdulloh Suhravardiyning Hindistonda nashr etilgan "Hazrati Muhammadning o'gitlari" risolasidagi hikmatlardan bir kitobcha tartib qilib u kitob (1909) chop qildirdi.²

Hindistonlik yozuvching asaridan islomga bo'lgan hurmati yanada oshdi, unda diniy bag'rikenglik tushunchasini naqadar go'zal ekanini tushunib yetdi. Iqornoma asari cherkovning taqiqiga uchragan, shu sababdan juda kam sonda bosmadan chiqqan edi. Sho'ro hokimiyati paytida u faqatgina bir marotaba chop etilgan edi, 1928-yilda adib tavalludining yuz yilligi munosabati bilan faqatgina ming dona chiqarilgan etilgan edi. Keyinchalik mustaqillik yillarida bu asar yana bosmadan chiqdi. Eng e'tiborli tarafi esa bunga o'xshagan asar jahon adabiyotida juda kam uchraydi. Eng mashxur jahon adiblarining ko'zga ko'ringan vakillaridan bo'lgan yozuvchilar Jon Jak Russo va boshqalarning asarlari o'quvchilarning eng sevimli yozuvchilaridan bo'lib ular o'z asarlarida insonning ko'zga ko'ringan muomalari haqida so'z yuritadi, ammo rus adibi va faylasufi deya tan olingan Tolstoy esa ko'pgina asarlarida insonning ma'naviyatida uchraydigan muamolarni o'zining hayotidan chetga chiqmagan holda misollar orqali tushuntirishga uringan. Shu sababdan Lev Tolstoyning bir qancha asarlari kitobxonlarning qalbidan joy egallagan.

Tolstoy nafaqat insonlarning diniy qadriyatlariga e'tibor bergan balki asarida insonning mukammalashuvi va o'sishi haqida alohida so'z yuritgan. Ilm unutilsa unga ziyon yetadi, loqaydsizning qo'lida yo'q bo'lur. Xaqiqiy olim u-dirki, bilganini hayotga tatbiq etar. Mashxur adib ilm-fan shu qadar matonat bilan nimalarni bilishni istashi endi menga ma'lum deb ta'kidlar edi. Hayot yo'lida barcha ilmlarning zarurligini va qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini bayon etgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi Ozod Sharofiddinov iqornomani ijodiy jarayon deb hisoblaydi, chunki u insonning dunyoqarashi va tajribalarini aks ettiradi va har doim o'zgartirishlar kiritish imkoniyatini beradi deydi, o'zining bu haqidagi maqolasida. Shuningdek, bizning islom olamida nom qozongan Abu Homid G'azzoliyning "Ilm kitobida" ilm va uning

² Lev Tolstoy "hazrati Muhammad (s.a.v) o'gitlari. Maktublar. Iqornoma. "Yangi asr avlodi" Toshkent- 2022- B.9, b.190

fazilatlarini haqida keng qamrovli sahobalarning fikrlaridan va hadisda ilmning ahamiyati haqida shunday keladi:

*Ilm ahli sharaflari, hidoyati istaganlarga yo'l ko'rsatgay,
Har kishining qadri bilki, qilgan ishi-la o'lchangay.
Johil- olim dushmani lek kanda qilma ilm izlashni,
Ilm birla umr boqiy, ilmsizlar hayotdan erta ketgay.*

Ibn Abbos (r.a) aytadi: Sulaymon alayhisalomga yo ilmni, yoki , mol dunyoni tanlash ihtiyoiri berildi. Shunda u zot ilmni tanladilar keyin u kishiga mol- mulk ham ato etildi.³ Bu hammaga ma'lum bir mashxur rivoyatlardan edi.

Chunki faqat islom olimlari ilmga katta e'tibor berishmayapti balki g'arb mutafakkirlari ham bu borada hozirgi kundagi yoshlarga katta e'tibor berishyapti. Ilm borasida islom olimlarining fikrlari bilan uyg'un bo'lgan bu kitob inson fikrlarini bugungi kundagi ijtimoiy hayotga katta ta'siri bor. Yana Lev Tolstoyning iqrornomasi haqida so'z yuritilar ekan. Inson umrining mazmuni haqida bosh qotirar ekan, uning hayotida e'tiqodning, dinning o'rni va roli haqidagi teran fikrlarni o'rta tashlaydi, buyuk insonlarni qiynagan ma'naviy savollarga javob izlaydi. Asar Lev Tolstoy hayoti va dunyo qarashlarining yangi qirralarini aks ettirganligi bilan muhim. Zamonaviy britaniyalik yozuvchi Juilian Barnsning "Oxirat hissi" iqrornoma romani sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Barns bu asarda nafaqat bosh qahramonning o'z gunohlariga iqror bo'lishini, balki muallifning o'zining ma'lum bir davrdagi keskin ijtimoiy o'zgarishlar tufayli yuzaga kelgan muammolarni ochib berishni ko'zlagan Bu zamonaviy yozuvchilar uchun iqrornomaning nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy hodisalarni ham anglatishi mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Tolstoy asarni yetarli darajada komil qilib yakunlagan bo'lib, asarning o'ziga tortadigan e'tiborli joyi rus adibi o'zini aymay tahlil qilgani va insonlarga hayotdagi maqsani to'g'ri anglashni o'rgatadi. Bu asardan shuni tushunish kerakki tolostoyning hayotidan parchalarni o'qigan inson, muallif qilgan xatolarni qilmaslikka hayotddan ezgulik qidirib yashash lozimligini, umr ozligini, ozgina vaqtini nimadir foydali ishlar va mashg'ulotlarga sartflashini hohlab qolaman. Asarda mashxur bo'gan shaxslarni gaplaridan iqtibos keltirar ekan, ularning barchasi bitta jumlada ya'ni o'z asarida jamlagan.

³ Abu Homid G'azzoliy. Ihyou ulumid-din. – Toshkent: Movrounnahr, 2007. – B. 144